

E'RON

Joriy yilning 27-iyun kuni «O'zagrosug'urta» aksiyadorlik jamiyatini aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishi o'tkazilishi belgilangan edi. Yig'ilishni vakolatli deb topish uchun zarur kvorum bo'lmasligi sababli yig'ilish o'tkazilmadi va kun tartibidagi masalalar yuzasidan qaror qabul qilinmadi.

Jamiyat aksiyadorlarning takroriy umumiy yig'ilishi **joriy yilning 7-iyul kuni soat 17.00 da** Jamiyat Boshqaruving Toshkent shahri, Chilonzor tumani, 19-mavze, 61/2-uyda joylashgan ma'muriy binosida o'tkazilishi belgilangan.

KUN TARTIBI

- 1.** Sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
- 2.** Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash.
- 3.** «O'zagrosug'urta» AJ Boshqaruvi raisining 2022 yil biznes-rejasining asosiy ko'rsatkichlarining bajarilishi va Jamiyatni rivojlanish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar yuzasidan hisobotini tasdiqlash.
- 4.** «O'zagrosug'urta» AJ Kuzatuv kengashining 2022 yil yakunlari bo'yicha o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan hisobotini eshitish.
- 5.** Jamiyatning korporativ boshqaruvi tizimi va korporativ boshqaruvi Kodeksi tavsiyalariga 2022 yilda rioya qilinishi bo'yicha mustaqil baholash natijalari yuzasidan hisobotni eshitish.
- 6.** «O'zagrosug'urta» AJning 2022 yil yakunlari bo'yicha yillik hisoboti, buxgalteriya balansi, foyda va zarari hisobi bo'yicha hisoboti va auditorlik tekshiruvi xulosalarini tasdiqlash.
- 7.** «O'zagrosug'urta» AJning 2022 yil yakuni bo'yicha sof foydasini taqsimlash.
- 8.** Aksiyadorlar yoki uning qonuniy huquqiy vorisi, yoxud merosxo'ri da'vo qilish uchun belgilangan muddatda talab qilib olinmagan dividendlarini Jamiyat ixtiyoriga o'tkazish.
- 9.** Jamiyat Boshqaruvi raisi va boshqaruvi a'zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini ko'rib chiqish.
- 10.** «O'zagrosug'urta» AJ tomonidan Jamiyatning affillangan shaxslari bilan kelgusida Jamiyatning kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda tuzilishi mumkin bo'lgan bitimni (bitimlarni) hamda yirik bitim (bitimlar) ro'yxatini aniqlash va tasdiqlash.
- 11.** Jamiyat Kuzatuv kengashi to'g'risidagi, Jamiyat ichki audit xizmati to'g'risidagi Nizomlarni yangi tahrirda tasdiqlash.
- 12.** «O'zagrosug'urta» AJ tashkiliy tuzilmasini yangi tahrirda tasdiqlash.
- 13.** Jamiyatning kelgusida, keyingi yillik umumiy yig'ilishigacha bo'lgan davrda, ehtimoliy homiylik (xayriya) va boshqa beg'araz yordam ko'rsatish (olish)ga bog'liq bo'lgan xarajatlarni tasdiqlash, shu jumladan, Kuzatuv kengashiga, homiylik (xayriya) yoki beg'araz yordam ko'rsatish (olish) tartibi va shartlarini belgilash hamda bu borada qaror qilish vakolatini berish.
- 14.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 24 martdagি PQ-102-soni Qarori muvofiq Jamiyat investitsiya porfelidagi «Turonbank» ATB aksiyalarini Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o'tkazish to'g'risida.

Yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo‘lgan aksiyadorlarning ro‘yxati joriy yilning 21 iyun kuni holatiga aksiyadorlar reestri asosida shakllantiriladi.